



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## TA'LIM TIZIMI VA OILA HAMKORLIGIDA YOSHLAR TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

**Narzullayeva Manzura**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim 2-kurs 2- guruh talabasi*

**Ilmiy rahbar: Qahharova Malika Lutfullo qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim tizimi va oiladagi yoshlar tarbiyasi, uni shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, intellektual va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ta'lim muassasalar i, oila va jamiyat hamkorligining dolzarbligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim tizimi, muhit, oila, yoshlar tarbiyasi, ta'lim -tarbiya jarayoni, oila va maktab hamkorligi.*

**Abstract:** *This article examines the issues of the education system and the formation of youth education in the family. It discusses the relevance of cooperation between educational institutions, family and society in raising the younger generation as spiritually, morally, intellectually and socially mature individuals.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопросы системы образования и формирования воспитания молодежи в семье. Обсуждается важность сотрудничества между образовательными учреждениями, семьей и обществом в воспитании молодого поколения как духовно, морально, интеллектуально и социально зрелых личностей.*

Yoshlik inson umrining eng nozik davri hisoblanadi. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yosh yigit- qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb -hunar egallashi uchun keng sharoitlar yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilinib, birin-ketin amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, jamiyat yoshlar ongida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay turib istiqbolga erishib bo'lmaydi. Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ong-u tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganligini chuqur his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi.

Ta'lim va tarbiya birinchi navbatda, oiladan boshlanadi. Chunki oila- tarbiya maskani, tarbiya esa uning muhim vazifalaridan biridir. Shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob, muomala qoidalarini ham o'zlashtirib boradi. Ota -ona farzand uchun ideal shaxs hisoblanib, ular





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik kabi maqom qadriyatlari ona suti, oila a‘zolarining mehri bilan bolsning xulqi va ongiga singadi. Bolaning har taraflama rivojlanishida oila asosiy omil va vositadir. Bu o‘rinda misoli ota -ona – san’atkor, bola esa san’at asari, tarbiya jarayoni esa san’atning o‘zidir.

O‘zbek oilalariga xos yana boshqa xarakterli xususiyatlar ham mavjud bo‘lib, ular asrlar davomida sayqallanib qadriyatga aylangan serfarzandlik, otaning oilada bosh bo‘lishi, kattalarga hurmatda bo‘lish, mehnatga o‘rgatish, oiladagi tartib, oiladagi har bir insonning bir -biriga nisbatan mehr-oqibatli bo‘lishi, tug‘ilib o‘sgan joyga muhabbat tuyg‘ularidir. Bunday oilada ulg‘aygan bolalar ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan, ilmga yo‘nalgan holda voyaga yetadi.

Oilada bolalar tarbiyasining barqaror bo‘lishi uchun ta‘lim muassasalari muhim ahamiyatga egadir. Ya‘ni bunda oila va maktabgacha ta‘lim, maktab ta‘limi hamkorlikda faoliyat yuritrsa, samarali natija bo‘ladi.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilari maktab faoliyati uchun ularda ko‘nikma, malakalarni shakllantirish muhimdir. Bunda o‘qituvchilar har bir o‘quvchilarning oila a‘zolarini bilishi, ular bilan yaqindan aloqada bo‘lishi, uchrashuvlar o‘tkazib turishi lozim. Bolalar birdaniga maktabga o‘rganib qolishi qiyin kechadi. Ko‘p hollarda bolalar maktabga borishdan bosh tortadi bunda ularning o‘zlashtirishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ota-onalar hamda o‘qituvchi, sinf rahbarining o‘rni kattadir.

Ta‘lim va tarbiyaning birgalikda olib borilishi yoshlar tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

Ta‘lim – shaxsga bilim, ko‘nikma va malakalar berish jarayoni bo‘lsa, tarbiya – uning axloqiy, ma‘naviy, jismoniy va estetik jihatdan shakllanishini ta‘minlaydi. Ushbu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiradi va uzviy bog‘liq holda olib borilgandagina kutilgan natijaga erishiladi. Faqat bilim berish bilan cheklanilgan ta‘lim shaxs kamolotini to‘liq ta‘minlay olmaydi, tarbiya esa bilimlar bilan mustahkamlangandagina samarali bo‘ladi.

Oila – bolaning birinchi tarbiya maktabidir. Farzandning dunyoqarashi, xulq-atvori, odobi va hayotga munosabati avvalo oilada shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasi, oiladagi muhit, mehr-oqibat va o‘zaro hurmat yoshlar tarbiyasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Agar oilada sog‘lom ma‘naviy muhit mavjud bo‘lsa, bu ta‘lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi.

Ta‘lim muassasalari yoshlarni nafaqat bilimli, balki vatanparvar, mas‘uliyatli va ijtimoiy faol shaxs qilib tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Dars jarayonida tarbiyaviy maqsadlarni hisobga olish, sinfdan tashqari tadbirlar, ma‘naviy-ma‘rifiy mashg‘ulotlar yoshlar ongida ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy namunalari tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Ta‘lim va tarbiyaning birgalikda olib borilishi

Ta‘lim va tarbiya jarayonining uyg‘unligi yoshlar tarbiyasida muhim natijalarga olib keladi. Bu uyg‘unlik oila–maktab–jamiyat hamkorligi orqali ta‘minlanadi. Ota-onalar va pedagoglar o‘zaro hamfikir bo‘lib, bir xil tarbiyaviy maqsadni ko‘zlasalar, yoshlarning





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



axloqiy va ma’naviy kamoloti yanada mustahkamlanadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya esa barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etishda ta’lim tizimi va oilaning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ta’lim va tarbiyaning birgalikda olib borilishi yoshlarni har tomonlama yetuk, jamiyatga foydali va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga imkon beradi. Shu bois mazkur jarayonda oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning hamjihatlikdagi faoliyati zarur hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti bo‘lib, bu jarayonda ta’lim tizimi va oilaning o‘rni beqiyosdir. Ta’lim va tarbiya bir-biridan ajralmas jarayonlar bo‘lib, ularni uyg‘un holda olib borishgina shaxs kamolotini to‘liq ta’minlaydi. Oila farzandda dastlabki axloqiy me’yorlar, milliy qadriyatlar va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirsa, ta’lim muassasalari bu asoslarni ilmiy bilimlar, ijtimoiy tajriba va mustaqil fikrlash bilan boyitadi.

Ta’lim va tarbiyaning uzviyligi yoshlarning ma’naviy-axloqiy yetukligi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyat hissini kuchaytiradi. Oila, maktab va jamiyat hamkorligi ta’minlangandagina yoshlar barkamol shaxs sifatida shakllanib, Vatanga sadoqatli, tashabbuskor va raqobatbardosh avlod voyaga yetadi. Shu bois ta’lim jarayonida tarbiyaviy maqsadlarni kuchaytirish, oilada esa pedagogik madaniyatni yuksaltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
- 4.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent
- 5.Xoliqov A. Oila pedagogikasi. – Toshkent: Sharq, 2017.
- 6.Abdurauf Fitrat "Oila "asari
- 7.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

